

1-SINF “MURAKKAB MASALALAR” MAVZUSINI O’RGATISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH

Rajabova Lobar Choriyevna

Buxoro davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi.

Karomatova Rahima Bahodirovna

Boshlang‘ich ta’lim 1BT-22 guruh talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11058520>

Annotatsiya. Yangi o‘quv yilidan boshlab barcha 1-4-sinf o‘quvchilari yangi avlod darsliklari asosida tahsil olishi nazarda tutilgan bo‘lib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining 770 nomdagi darsliklari 70 milliondan ortiq nusxada chop etildi. Yangi topshiriqlar, masalalarni yechishda albatta interfaol usullar kerak bo‘ladi. Ushbu maqolada 1-sinfdagi “Murakkab masalalar” mavzusini o‘rgatishda foydalanish mumkin bo‘lgan bir nechta metodlar va didaktik o‘yinlar berilgan.

Kalit so‘zlar: murakkab masala, mantiqiy tafakkur, metod, didaktik o‘yinlar, STEAM.

USE OF INTERACTIVE METHODS IN TEACHING THE TOPIC "COMPLEX PROBLEMS" 1ST GRADE

Abstract. Starting from the new academic year, all 1st-4th graders are expected to study on the basis of new generation textbooks, and more than 70 million copies of 770 textbooks for primary graders have been published. New assignments and problem solving will definitely require more active methods. This article presents several methods and didactic games that can be used to teach the topic "Complex problems" in the 1st grade.

Key words: complex problem, logical thinking, method, didactic games, STEAM.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В ПРЕПОДАВАНИИ ТЕМЫ «СЛОЖНЫЕ ЗАДАЧИ» 1 КЛАСС.

Аннотация. С нового учебного года все учащиеся 1-4 классов будут учиться на основе учебников нового поколения, издано более 70 миллионов экземпляров 770 учебников для учащихся младших классов. Новые задания и решение проблем определенно потребуют более активных методов. В данной статье представлены несколько методов и дидактических игр, которые можно использовать при преподавании темы «Сложные задачи» в 1 классе.

Ключевые слова: сложная задача, логическое мышление, метод, дидактические игры, STEAM.

Boshlang‘ich ta’lim-ta’limning poydevori. joriy o‘quv yilida 1-4-sinflarning o‘quvchilari yangi darsliklar bilan ta’minlanib, darslar davomida fanlardan mavzularni o‘rganish bilan bir qatorda darslikdagi rang-barang rasmlar, qiziqarli rebuslar, mantiqiy topshiriqlar hamda loyihalar bilan ishlashni o‘zlashtirmoqda.

1-sinf darsliklari 2023-2024-o‘quv yilida butkul yangilandi, shu sababli o‘qituvchilar zimmasiga yanada ko‘proq vazifa va mas’uliyat yuklandi. Chunki yangi darsliklardagi mashqlar soni ko‘paygan hamda qiyinlashgan. Mazkur darsliklarda zamonaviy yondashuvlardan biri - STEAM ta’limi tizimi targ‘ib qilinmoqda. Hozirgi kunda bolalarda mantiqiy fikr olish ko‘nikmasi shakllantirish asosiy maqsadlardan biridir.


Darslarni yanada tushunarli qilib o'tish uchun, avvalo bolalarni darsga qiziqтира olish hamda, dars davomida bolalarni zeriktirib qo'ymaslik o'qituvchining asosiy vazifalaridan biridir, ayniqsa endigini maktab shart-sharoitiga moslasha boshlagan 1-sinf o'quvchilariga dars o'tish jarayonlarida qiziqarli metodlar, didaktik o'yinlar, dam olish daqiqalari o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi, albatta.

Ushbu maqolada 1-sinf Matematika darsligidagi 98-mavzusi (Murakkab masalalar)ni qanday metodlar, didaktik o'yinlar va dam olish daqiqalari bilan o'tkazish mumkinligini ko'rib chiqamiz.

Dars boshlanadi. O'quvchilar bilan salomlashilib, barcha tashkiliy ishlar bajarilgach, o'tgan mavzu eslanadi.

O'tgan mavzu: Ikki amalli masalalar yechish. Bunda "Men nechchiman?" didaktik o'yinini qo'llash mumkin. Bu o'yinda sinfdan 2 ta (agar mazkur didaktik o'yin ilk bor o'tkazilayotgan bo'lsa) yoki 3ta (agar sinf o'quvchilari bu o'yin bilan yaxshi tanish bo'lsa) o'quvchi doskaga chiqariladi va bir-biriga orqasini qilgan holda o'tiradi. O'qituvchi tomonidan stikerlarga son yozilib ularning peshonalariga yopishtiriladi. Masalan bir o'quvchiga 7, ikkinchi o'quvchiga 8. O'qituvchi ikkala sonning yig'indisini bolalarga aytadi: "Sizlarning raqamlaringiz yig'indisi 15. Bir-biringizga qarang." Shu buyruqdan so'ng o'quvchilar bir-birlarining peshonalaridagi sonni ko'rib, o'zlarining peshonalaridagi sonni topishlari kerak. Kim birichi topsa "Men 8 man yoki men 7 man" deyishi kerak. Birinchi topgan o'quvchi g'olib sanaladi. Bu qiziqarli didaktik o'yinni nafaqat birinchi sinflarda, balki yuqori sinf darslarida qo'llasa ham bo'ladi. Mazkur metod o'quvchilarni hayolda tez hisoblash qobiliyatlarini oshiradi.

Yangi mavzuni tushuntirish qismiga o'tamiz. Mavzuga kirish qismda matematik boshqotirma berilgan. Hozirda ko'pgina boshlang'ich sinf xonalarida televizor mavjud. O'qituvchi tomonidan bu boshqotirmani yechishda AKTdan foydalanilsa bolalar uchun ham tushunarli ham qiziqarli bo'ladi. Bunda boshqotirma multimedia orqali tuzilishi hamda sinf bilan birga yechilishi kerak. Masalan: 49 ostidaga bitta son ma'lum 26, bittasi esa noma'lum. Bolalar bilan noma'lum son 23 ligi topilgach bo'sh katak ichida 23 paydo bo'ladi va bolalarda to'g'ri topilgan son uchun o'zlariga qarsak chalishadi. Shu tarz har bitta son topilgach televizorda qo'yilgan multimedia orqali javobi paydo bo'lib boraveradi va o'quvchilar o'z javoblar bilan tekshirishadi. Quyida boshqotirmani ko'rishingiz mumkin:



1-mashq: To'g'ri ketma-ketlikni tuzing.

Ushbu mashqa hafta kunlari har xil tartibda qo'yilgan o'quvchi esa hafta kunlarini tartib bilan terishi kerak. Bu mashqni sinf bilan birga ishlash mumkin. O'qituvchi kitobda berilgan rasm singari stikerlarga hafta kunlarini yozib, stol ustiga qo'yadi va istalgan 7 ta o'quvchini doskaga birin-ketin chaqiradi. O'quvchilar stol ustidagi hafta kunlari yozilgan rangli stikerlarni olib maxsus qo'shimcha doskaga tartib bilan yopishtirishlari kerak. 1-o'quvchi 1-hafta kunini 2-o'quvchi 2-hafta kunini va h.k.

Barcha kunlar yopishtirib bo'lingach sinfdagi qolgan o'quvchilardan "To'grimi?" deya so'raladi. Tasdiq javobi olingach, doskaga chiqqan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

Rag'batlantirishda bolalar asosan nima bilan rag'batlantirilgan bo'lsa oldingi dars jarayonlarida o'sha bilan rag'batlantiriladi. Misol uchun stikerlar, origami usulida yasalgan yulduzchalar, plastmassadan yasalgan sabzavotlar yokida mevalar va h.k.

2-mashqdagi masala yozma bajarilishi kerak. Buning uchun o'qituvchi doskaga yopishtirilgan hafta kunlariga ishora qilib masala shartini o'qib, tushuntiradi va birinchi bo'lib daftoriga chiroyli yozgan besh kishi baholanishi aytiladi. Ilk beshta o'quvchi masalani yechib bo'lgach, "Tengdosh" metodi orqali, balki tushunmay qolgan, balki ulgurmay qolgan barcha o'quvchilarga yana bir bor tushuntiriladi. Mazkur metod ilk 5 ta o'quvchidan eng yaxshi tushungan o'quvchi doskaga chiqariladi va masalani qanday yechganini tushuntirib beradi. O'quvchilar ayrim hollarda o'qituvchi tomonidan emas, balki aynan, o'zlarining tengdoshlari tomonidan tushuntirilgan masalani yaxshiroq tushunishlari mumkin. Bejizga xalqimiz orasida "Bola tilini bola tushunadi" degan maqol mavjud emas,

Keyingi 3-mashq ham xuddi 2-mashq singari tartibda o'tadi.

4-mashq doskada bajarilsa yaxshi samara beradi. Bunda darsda kam qatnashadigan yokida o'zlashtirishi pastroq bo'lgan o'quvchilarni doskaga chiqarish maqsadga muvofiq. Qolgan o'quvchilar esa daftalariga mustaqqil bajarishadi. Doskadan oldin mashqni bajarib bo'lgan va doskaga chiqqan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

Darsning bu qismida ozgina dam olish daqiqasi qilish ayni muddao bo'ladi. Chunki jajji o'quvchilar ancha charchashgan bo'ladi. Bunda bir qancha quvnoq qisqa o'yinlar va she'rlardan foydalanish mumkin, ayniqsa fiziominut o'tkazilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan, o'quvchilar o'rnalaridan turishadi. O'qituvchi quyidagi so'zlarni aytib qo'llari bilan mos harakatlarni ko'rsatadi, o'quvchilar esa uni takrorlashadi.

Shahrimizda hozir yomg'irdan oldingi sokinlik (ko'rsatkich barmoq burun ustiga qo'yilib ozgina egilishadi), yomg'ir tomchilay boshladi(barmoqlar yordamida tomchi ovozlari o'xshatiladi), yomg'ir tezlashdi(qo'llarimizni X shaklida o'tqazib ko'kraklarimizga urib ovoz chiqaramiz), jala quydi(qo'llar bilan tizza ustiga urilib ovoz chiqariladi), chaqmoq(ozgina sakraymiz), chaqmoq(sakraymiz), yomg'ir sekinlashdi, yomg'ir tindi va quyosh o'z nurlarini sochgani chiqdi(qo'llarimizni yuqoriga ko'taramiz va silkitamiz).

5-6-mashqlar yuqoridagi 2-3-mashqalar singari bajarilishi mumkin.

7-mashqda rangli aylanalar orqali qonuniyat ko'rsatilgan. Ushbu mashqni AKT vositlari yordamida multimedia shaklida tushuntirsa ham bo'ladi yoki doskaga kvadrat chiziladi va rangi qog'ozdan aylana qirqib olib tayyorlangan bo'ladi. O'qituvchi bolalarga kitobda berilgan qonuniyatni yacshiroq tushuntirish uchun 3 ta kvadratdagi aylanalarni bitta kvadratda aylanalarni harakatlantirib tushuntirsa bolalar qiynalmay qonuniyat mohiyatini anglab, o'z kitoblariga

aylanalarni chizib bo'yashadi. Yangi bo'lgan darsliklarning eng diqqatga va e'tirofqa sazovor joyi bu aynan matematika darsida bolalar rangili qalamlar bilan ishlashlari, kitoblarini o'ziga chizishlari mumkin. Bu albatta, STEAM ta'lim tizimidagi Art va Mathematics bo'limlarining integratsiyalashuvi.

8-mashqni sinf bilan birgalikda ishlasa bo'ladi, ammo o'qtuvchi yetarli o'quvchilarni baxolay olmagan bo'lsa, ushbu mashqni mustqail ish sifatida bersa ham bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan dars ishlanmasidagi barcha metodlar, didaktik o'yinlar va dam olish daqiqasidagi fiziomnut albatta, 45 daqiqa uchun mo'ljallanmagan. Ushbu maqolada aynan shu mavzuni qaysi usullar orqali o'tish mumkinligi haqida fikr yuritilgan.

Xulosa qiladigan bo'lsak,

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5 sentyabrdagi "2018–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi №PQ–3931- son qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son farmoni
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev Sh. M . Milliy taraqqiyot yo'limizni qa'tiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –T.: O'zbekiston.2017-yil.
4. Matematika. 1-sinf darslik. T.: Novda nashriyoti. 2023-yil
5. Choriyevna, K. R. B. R. L. (2023). STEAM TA'LIMIDAN AMALIY ISHLARNI TASHKIL QILISH METODIKASI. *Confrencea*, 12(12), 251-257.
6. Rajabova, L., & Shavkatova, N. (2023). METHODS OF USING MARIA MONTESSORI METHODOLOGY IN THE STEAM EDUCATIONAL APPROACH. *Modern Science and Research*, 2(12), 387-391.
7. Ochilova, L., & Rajabova, L. (2023). STEAM USULI-TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYA SIFATIDA. " ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ" международный научно-методический журнал, 1(3).
8. Rajabova, L. (2021). МАКТАБГАЧА ТА'LIM TASHKILOTLARIDA "STEAM" TEXNOLOGIYASINI TADBIQ ETISH. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (*buxdu. uz*), 7(7).
9. RAJABOVA, L. МАКТАБГАЧА ТА'LIM TASHKILOTLARIDA "STEAM" TEXNOLOGIYASINI TADBIQ ETISH. *ЭКОНОМИКА*, 527-530.
10. Rajabova, L. (2020). Steam ta'lim dasturi asosida matematika masalalarini yechishning ilg'or usullari. *центр научных публикаций (buxdu. Uz)*, 1(1).
11. Temirovna, O. L. (2023). DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING OF CHILDREN IN SOLVING NON-STANDARD PROBLEMS. *Journal of Modern Educational Achievements*, 10(1), 294-300.

12. Temirovna, O. L., & Laylo, X. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING QIZIQARLI MASALALARNI YECHISH FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH USULLARI. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 748-748.
13. Temirovna, O. L. (2023). KASRLAR MAVZUSINI O'RGATISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 743-743.
14. Ochilova, L. T. (2022). MATEMATIKADAN IJODIY TAFAKKURNI O'QITIRISHDA TRIZ PEDAGOGIKSIDAN FOYDLANISH. *Экономика и социум*, (6-2 (97)), 178-181.
15. Temirovna, O. L. (2023). ADVANTAGES OF USING THE PROBLEM LEARNING METHOD IN MATHEMATICS LESSONS IN THE PRIMARY SCHOOL. *Journal of Modern Educational Achievements*, 7(7), 403-407.